

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14556617>

ULUG‘BEK DAVRI ME‘MORCHILIGINING ZAMONAVIY TURIZM RIVOJIDAGI O‘RNI

Jahonova Xolida G‘anisher qizi

Temiz davlat pedagogika instituti 4-kurs talabasi

xolidajahonova01@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda xalqimizning qadimiy tarixidan so‘zlaydigan noyob yodgorliklarni asrash, o‘rganish, tadbiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish g‘oyat muhim vazifadir. Mamlakatimizning tarixiy obidalarini o‘rganish xalqimiz tarixiga oid yangi ashyo va ma‘lumotlar olish imkonini, o‘tmishimizda yashab o‘tgan ajdodlarimizni hozirgi kunga yetib kelishimizdagi o‘rinlarini bilishimizga, ularning mehnatlarini qadrlashga yetaklaydi. Ushbu maqolada qomusiy olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bekning bebaho tarixiy, madaniy hamda ma‘naviy merosini asrab-avaylash, chuqur o‘rganish, yosh avlodga targ‘ib qilish, ichki va tashqi turizmni har tomonlama rivojlantirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Registon maydoni, madrasa, Mirzo Ulug‘bek, Sherdor madrasasi, Ulug‘bek madrasasi, madaniy meros, turizm, maorif va madaniyat.

Аннотация: Сегодня чрезвычайно важной задачей является сохранение, изучение, применение и передача будущим поколениям уникальных памятников, говорящих о древней истории нашего народа. Изучение исторических памятников нашей страны позволяет получить новые материалы и сведения об истории нашего народа, позволяет узнать место наших предков, живших в прошлом, и оценить их труд. В данной статье говорится о сохранении, углубленном изучении, популяризации подрастающего поколения бесценного исторического, культурного и духовного наследия энциклопедиста и государственного деятеля Мирзо Улугбека, всемерном развитии внутреннего и внешнего туризма.

Ключевые слова: площадь Регистан, медресе, Мирзо Улугбек, медресе Шердор, медресе Улугбека, культурное наследие, туризм, образование и культура.

Abstract: *Today, it is an extremely important task to preserve, study, apply and pass on to future generations the unique monuments that speak of the ancient history of our nation. Studying the historical monuments of our country allows us to get new materials and information about the history of our people, it leads us to know the place of our ancestors who lived in the past and to appreciate their work. This article talks about preservation, in-depth study, promotion to the younger generation of the invaluable historical, cultural and spiritual heritage of the encyclopedist and statesman Mirzo Ulug‘bek, comprehensive development of domestic and foreign tourism.*

Key words: *Registan square, madrasa, Mirzo Ulugbek, Sherdor madrasa, Ulugbek madrasa, cultural heritage, tourism, education and culture.*

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston xalqining bebaho tarixiy, madaniy hamda ma‘naviy merosini asrab-avaylash, chuqur o‘rganish, yosh avlodga targ‘ib qilish, ichki va tashqi turizmni har tomonlama rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PQ-4730-son qaroriga muvofiq, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida moddiy madaniy meros obyektlari muhofaza qilinishi, asralishi va ulardan foydalanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, moddiy madaniy meros ko‘chmas mulk obyektlarining qo‘riqlanadigan tegralarini belgilash va ularni saqlash tartibi tasdiqlandi.¹ Darhaqiqat, tarix tajribasi hamda madaniy merosni o‘rganish va targ‘ib etish-hozirgi davrda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy o‘zgarishlarni yanada chuqurroq idrok etish va tushunib yetishga, istiqlol yo‘lida yangidan-yangi taraqqiyot uchun ulkan zamin yaratish hamda shu asosda jamiyat rivojiga hissa qo‘shish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish esa davr talabidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorida: “Mirzo Ulug‘bek uzoq yillar o‘z saltanatini adolat va insonparvarlik g‘oyalari asosida boshqarish va keng ko‘lamli

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.03.2021 yildagi 119-son

bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish bilan birga ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratdi. Uning tashabbusi va homiyligi ostida ko'plab madrasalar, maktablar, kutubxonalar, masjidlar, karvonsaroylar, ko'priklar hamda so'lim bog'lar barpo etildi. Natijada o'lkamiz har tomonlama taraqqiy etib, Sharqdagi yirik madaniyat va ilm-fan diyoriga aylandi",¹ — deya ta'riflaydi.

Samarqandning tarixiy markazi hisoblangan Registon maydoni o'zining qadimiy me'morchiligi go'zalligi va ulug'vorligi bilan xodimlarni o'ziga jalb etadi. Afsonaviy Registon maydoni Markaziy Osiyoning takrorlanmas me'moriy yodgorligidir. Registon nomini olganki, ma'nosi „qumli joy"— yoki „qumli maydon"—ma'nosini anglatadi. Registon XV asrgacha katta savdo markazi bo'lgan. Registonning bosh maydon sifatida shakllanishi va mashxur bo'lishi, Sharqning eng go'zal me'morchilik ansambliga aylanishi Mirzo Ulug'bek faoliyati bilan bog'liqdir. Buyuk olim, zarbardast davlat arbobi Mirzo Ulug'bek o'z bobosi Amir Temurning Samarqand va Movarounnaxrning boshqa yerlarida olib borgan ulkan bunyodkorlik ishlarini davom ettiribgina qolmasdan, unga yangicha mazmun baxsh etdi. U bobosidan o'rnak olib, shaxarlar, chorbog'lar, rabotlar, masjidlar va boshqa imoratlar qatori ilm-fan maskanlari qurilishiga xam alohida e'tibor berdi. Registonlar Gretsiyadagi Agara, Rim imperiyasidagi Forum, Rossiya shaxarsozligidagi Qizil maydonlar singari O'rta Osiyo shaharlaridagi el to'planadigan bosh maydonlarni anglatadi. XVI asrning birinchi yarmidagi Registondagi ayrim o'zgarishlar shayboniylar sulolasi faoliyati bilan bog'liqdir. Registon maydonida XVII asrda qurilgan xashamatli inshootlar Samarqand hukmdori Yalangtosh Bahodir tomonidan qurilgan.

1979-yil Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Yaponiya Fanlar akademiyasining Prezidenti professor Sapporo Miyakining "Samarqand – nafaqat jahon sivilizatsiyasining markazi bo'lib qolmay, alloma Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot ilmining ham markazidir"² deb aytgan so'zlari Samarqandni xalqaro miqyosdagi salohiyati to'g'risidagi fikrlarini yana bir bor tasdiqladi. Sohibqiron Amir

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori

² 1979-yil Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Yaponiya Fanlar akademiyasining Prezidenti professor Sapporo Miyakining nutqidan

Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek Samarqandda butun bir astronomik maktabga asos soldi. Buyuk davlat arbobi hamda benazir alloma Mirzo Ulug‘bek o‘zining kuch-qadratini urushlarga emas, balki ilm-ma‘rifatni, maorif va madaniyatni rivojlantirishga qaratdi.

Samarqand viloyatidagi "Registon" ansambliga 2022-yilda 1 027 951 nafar mahalliy va xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Ma‘lumot uchun, "Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi" deya e‘tirof etilayotgan Samarqand 2023-yilda Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) poytaxti hisoblanadi. UNWTO Bosh Assambleyasining yubiley 25-sessiyasi aynan Samarqandda o‘tkaziladi. Bu bejizga emas, albatta. Chunki majmuada mehmonlarga xizmat ko‘rsatish yuqori darajada tashkil qilingan. Xususan, "Registon"ga kirgan turistlar uchun ekskursovod yoki audio-gid xizmatidan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Xulosa qilib aytganda, olis va yaqin tariximiz shuni ko‘rsatadiki, xalqimiz doimo ma‘naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug‘ tuyg‘u uning hayotida yillar, asrlar o‘tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma‘naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g‘ayrat va ilhom olib, o‘zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choriyev N. Sharq uyg‘onish davri va Ulug‘bek akademiyasi. //Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. -Toshkent — Samarqand O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti 2007. -B. 196
2. Qulmatov Sh, Berdimurodov. A, Samarkanda yodgorliklari. -Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2017. - B.15
3. Qodirov M, Mahmudov B. Ulug‘bek davri fani tarixidan. // Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy simpozium materiallari. - Toshkent — Samarqand O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti 2007. -B 189
4. Qobulova M, Ergashev I, Ergashev A .“Mintaqaviy turizm va turistikresurslar” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. A.2021. -B.117
5. First free Travel Guide in Uzbekistan.The Guide Uzbekistan.
6. Sherdor madrasasi. <https://meros.uz/>